

DARS JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Solayeva Mehribon Norimonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7093620>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'rni va foydali hususiyatlari to'g'risida tahlil olib boriladi.

Kalit so'zlar: dars, axborot kommunikatsion texnologiyalari, oliy ta'lim, kredit modul tizimi.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация. В данной статье будет проведен анализ роли и полезных свойств информационно-коммуникационных технологий в организации и управлении процессами уроков в высших учебных заведениях сегодня, когда развиты коммуникационные технологии.

Ключевые слова: урок, информационно-коммуникационные технологии, высшее образование, кредитно-модульная система.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF LESSON PROCESSES

Abstract. This article provides an analysis on the role and useful features of Information Communication Technologies in the organization and management of lesson processes in higher educational institutions today, where communication technologies are developed.

Keywords: lesson, information communication technologies, higher education, credit module system.

KIRISH

Bugungi kunga kelib zamon taraqqiylashishi bilan texnika, tibbiyot, qurilish va hokazo kabi yo'nalishlar rivojlanib axborot kommunikatsion texnologiyaga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. Shu o'rinda aytish mumkinki nafaqat qurilish, tibbiyot, texnika va h.k yo'nalishlarida balki ta'lim sifatini oshirishda ham axborot texnologiyalari rivojlanib borishi bilan bir qatorda axborot kommunikatsion texnologiyalarga bo'lgan talab ham yuqori darajada bo'lmoqda. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida keltirilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" axborot tizimida elektron o'quv dasturlar, darsliklar, ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar, taqdimotlar, multimedia ta'lim mahsulotlari, ma'ruzalarning audio va video yozuvlari hamda boshqa kontentlarni joylashtirsin.

Kabi bandlariga muvofiq bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish tizimi elektron ta'lim tizimiga o'tilgandir. Bunga misol tariqasida barcha oliy ta'lim muassasalarining

umumiy elektron platforma bo'lgan HEMISS dasturiga o'tganligini aytish mumkin. Shu bilan bir qatorda jaxon ta'lim standartlari asosida oliy ta'lim tizimi nafaqat elector tizim orqali boshqarish, balki, kredit modul tizimiga o'tganligini ham ta'kidlash lozim. Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda nafaqat oliy ta'limni boshqarish va xujjatlashtirishda electron tizim talab qilinmoqda. Dars jarayonlarini tashkillashtirish, dars sifani oshirish va shu bilan birga darsni to'g'ri taqsimlashda ham electron darslik va turli dasturlardan foydalanishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shuning uchun ushbu maqolada biz dars jarayonlarini tashkillashtirish, dars sifatini oshirish va darsni to'g'ri taqsimlashdagi electron ta'lim tizimining o'rnini tahlil qilamiz.

Avvalambor dars jarayonlarini tashkillashtirish xususida to'xtalib, shuni aytish mumkinki yuqorida aytib o'tganimizdek oliy ta'lim muassasalarining kredit modul tizimiga o'tishi bu oliy ta'lim muassasalari talabalarining auditoriya dars soatidan ko'ra mustaqil ish soatlarining oshishiga va bu orqali mustaqil izlanuvchan, kreativ fikrlovchi va muammolarga mustaqil ravishta yechim topa oladigan yosh kadrlarni yetishtirishga imkon beradi. Shunday ekan auditoriya dars soatlarining kamayishi hisobiga har bir dars mavzulari kengaytirilgan tartibda olib borilishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z o'rnida har bir darsdan unumli va samarali foydalangan holda dars jarayonlarini to'g'ri taqsimlash va tashkillashtirishni talab qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki dars jarayonlarini to'g'ri taqsimlashda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rnini katta. Sababi ta'kidlab o'tganimizdek har bir dars jarayonining kengaytirilgan mavzularini tushuntirishda vaqti meyyoriga javob bera olmay qolinish holatlari kuzatilishi mumkin. Shuni oldini olish uchun esa albatta dars jarayonida tayyor electron darsliklardan, slaydlardan yoki electron doskalardan foydalanish orqali berilgan mavzuni 90-95% miqdorida qamrab olishga, talabalarni darsdan zerikishlarining oldini olishga, vaqt meyyorini to'g'ri o'rnatishga va darsni sifatli tashkillashtirishga erishish mumkin. Bulardan tshqari yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek oliy ta'lim muassasalari kredit modul tizimiga o'tar ekan talabalarining mustaqil ishlashiga imkoniyat yaratish, mustaqil ish topshiriqlarini to'g'ri va sifatli taqsimlash masalalari ham dolzarb bo'lib, electron ta'lim orqali barcha muammolarga oson yechim topish mumkin.

MUHOKAMA

Masalan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining dars jarayonlarini va mustaqil ish ko'nikmalarini shakllantirishda electron ta'lim yoki electron darslikning o'rnini xususida to'xtalib o'tsak.

- 1) Oliy ta'lim muassasalarining aniq fanlar darslarini tashkillashtirishda electron darslikning o'rnini aytib o'tamiz. Aniq fanlar misol tariqasida matematika, fizika, kimyo fanlarini oladigan bo'lsak, ushbu fanlarning ma'ruza mashg'ulotlarini to'la qamrab olish bir muncha qiyin ish hisoblanadi. Sababi ushbu fanlarning barchasining har bir mavzusida ta'rif, lemma, teorema kabi bir qator isbot hamda tadbiiq ta'lab qiluvchi tushunchalar mavjud. Ammo ushbu tushunchalarni o'rgatishda aytib o'tganimizdek vaqt yetarli darajada bo'lmasligi mumkin, shuning uchun electron darslik va ba'zi electron videodarslar orqali talabalar mavzuni yetarli darajada o'zlashtirib olishlari mumkin. Shuni inobatga olib darslarning axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkil qilinishi bu dars vaqt meyyorining ta'labiga, dars sifat samaradorlik talabiga javob beradi.
- 2) Oliy ta'limda mavzularni o'tishda va o'zlashtirilishida electron ta'limning o'rnini katta, sababi yuqorida aytib o'tganimizdek mavzu doirasidagi birorta teoremlarni isbotlashda 1 ta dars

soati miqdori kamlik qilishi, keying dars soatida tushuntirilishi esa ish rejasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunday hollarda fan doirasida qilingan electron darslikning videodarslari, yuqori saviyada isbotlanishi lozim bo'lgan teoremlarning alohida to'xtalib o'tilgan isbatlari va teoremlarning hayotiy tadbirlari bilan boyitilgan electron darsliklari bu nafaqat talaba balki fan o'qituvchisi uchun ham eng katta ko'makchi hisoblanadi.

Bulardan tashqari har bir fan bo'yicha yaratilgan electron darsliklarning yana bir muhim jihati shundaki, talaba va fan o'qituvchisi fanning ma'ruza darslari, amaliy darslari va topshiriq vazifalari uchun alohida-alohida adabiyotlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, izlamaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan bir zamonda nafaqat oliy ta'lim muassasalari talabalariga balki umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ham electron ta'lim darslarini tashkil qilish orqali bir qator qulayliklarga erishish mumkin. Shular jumlasidan:

- 1) Darsni to'g'ri taqsimlash
- 2) Dars sifatini yaxshilash
- 3) Vaqt meyyoriga amal qilish
- 4) O'quvchi va talabalar o'zlarining bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishda yaxshi ko'makchi bo'ladi.

REFERENCES

1. S.S.G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalariga uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiy tahriri ostida. - T., «Sharq», 2000.
2. Solayeva M.N., Eshqorayev Q.A., Seytov A.J. Ba'zi bir misollarni ajoyib limitlar yordamida Noan'anaviy uslublardan foydalanib yechish usullari. Muallim ham uzluksiz ta'lim 1-1 2020 yil 109–113 betlar
3. Solayeva M.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlararo bog'liqlik. The journal of Academic research in Educational sciences Issn 2181 -1385 Volume 1, issue 3 November 2020, 1 (3), 315-320.
4. M.N.Solayeva. "Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida aniqmas va aniq integrallar mavzularini tushuntirishda amaliy mashg'ulotlar samarasini oshirishning bir nechta usullari" Jamiyat va innovatsiyalar jurnali №6 2021 yil. 253-257ss.
5. Мусахоновна Қ. Л. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БИОЛОГИЯ ФАНИДАН САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 577-585.
6. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – Т. 2. – №. 01. – С. 296-300.
7. ДЖУРАЕВ Р. Х., КАРАХАНОВА Л. М. Модель организации исследовательской деятельности учащихся 10 классов при преподавании физики и биологии //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 295-299.

8. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.
9. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 278-284.
10. Караханова Л. М. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 2. – С. 55-59.
11. Джураев Р. Х., Карахонова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2. – С. 322-323.
12. Сафарова Р. Г. и др. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан химоя қилишнинг назарий-методологик асослари. – 2017.
13. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – С. 68-70.
14. Karakhanova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – С. 35-39.
15. Jurayev, R. K., & Karakhanova, L. M. (2020). Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8), 3500-3505.
16. Musaxonovna, K. L. (2022). General secondary schools requirements for the introduction of informed educational resources for the development of natural sciences. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 855-860.
17. Mahmudov T., Adilov B., Qodirova Z. АРПАНИНГ САРИҚ ПАКАНАЛИК ВИРУСИ ШТАММЛАРИ ИДЕНТИФИКАЦИЯСИ ВА МОЛЕКУЛЯР ДИАГНОСТИКАСИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D4. – С. 147-154.
18. Sherimbetov, A. G., ADILOV, B. S., Kadirova, Z. N., Makhmudov, T. X., Mambetnazarov, A. B., Ruzmetov, D. R., ... & Karimov, E. Y. (2020). Molecular verification of species identity of some isolates of the genus *Fusarium* deposited in the phytopathogen collection in Uzbekistan. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology*, 94-98.
19. Gaybullaev B., Su-Chin C., Mahmudov T. An Ecological Disaster of the Aral Sea //Journal of Soil and Water Conservation. – 2009. – Т. 41. – №. 3. – С. 325-338.